

SHAXSIY MA'LUMOTLARNI QAYTA ISHLASHNING HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Sarvara Najmiddinova

Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy huquq fakulteti Davlat huquqiy
faoliyat yo'nalishi 2-kurs A-patok 1-guruh talabasi

najmiddinovasarvara11@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur berilgan tadqiqot shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashning huquqiy asoslarini takomillashtirish muammosiga bag'ishlangan. Raqamli texnologiyalar tez sur'atda o'sishi va kiberjinoyatchilikning kuchayishi bilan shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligi masalasi juda dolzarblik qiladi. Ushbu maqolada, avvalombor shaxsiy ma'lumotlar tushunchasi, ularning muhofazasi, shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash sohasida huquqiy me'yorlarni takomillashtirishining sabablari haqida so'z boradi. Maqolada shuningdek, shaxsiy ma'lumotlarni qonun hujjatlarida zamonaviylashtirish, qayta ishlash tartib-qoidalarini aniqlashtirish va jamiyatning shaxsiy daxlsizlikka doir huquqiy ongini oshirish usullari muhokama qilinadi. Ushbu maqolada nafaqat O'zbekiston hududidagi balki jahon miqyosida hamkorlikni kuchaytirish, yangi texnologiyalarni rivojlantirish haqida fikrlar bayon qilinadi. Shuningdek, bugungi kunda shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash chog'ida kelib chiqadigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'lida mutaxassislar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar va takliflar o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Raqamli muhit, xavfsizlik, huquqshunoslar, milliy qonunchilik, xalqaro tajriba, shaxsiy ma'lumotlar, turli xil strategiyalar, kiberjinoyatchilik, raqamli texnologiyalar, kolliziya

KIRISH

Zamonaviy texnologiyalarning takomillashib borishi bugungi kunda barcha sohalarga, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlar himoyasi va qayta ishlanishi sohasiga ham katta ta'sir qilmoqda. Raqamli muhitda shaxsiy ma'lumotlar atamasi o'z ichiga ko'plab tadqiqotlar va ilmiy o'rganishlarni qamrab oladi. Ushbu maqolada raqamli muhitda shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi, buzilishi va qayta ishlanishiga doir afzalliklar, kamchiliklar, taklif va yechimlar tahlil qilinadi va shaxsiy ma'lumotlarning huquqiy xizmatlar ko'rsatish samaradorligini oshirishdagi o'rni tahlil qilinadi.

Maqolaning dolzarbligi shundaki, raqamli muhitda shaxsiy ma'lumotlarning buzilishi ularning dalxsizligi muhokamali mavzuga aylanmoqda. Shaxsiy ma'lumotlarning tarqalishi ularning oshkor qilinishi ancha qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli shaxsiy ma'lumotlarning himoyasini belgilash va ularni huquqiy tartibga solish yo'llari haqida chuqur ilmiy tadqiqotlar va ilmiy o'rganishlar o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi shaxsiy ma'lumotlarning qayta ishlanishining afzalliklari va kamchilik tomonlarini tahlil qilish va mazkur holatning jamiyatga ta'sirini o'rganish va ularning huquqiy asoslarini takomillashtirishga doir chora-tartiblarni aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

Shaxsiy ma'lumotlar tushunchasi va uning huquqiy kafolati

Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash asoslari

Raqamli muhitda shaxsiy ma'lumotlarga tajovuz va ularning himoyasiga doir o'rganishlar

Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashni takomillashtirishga doir milliy qonunchiliklarning jamiyatga ta'sirini baholash

Xalqaro qonunchilikda shaxsiy ma'lumotlar himoyasi va ularni joriy etish

Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashni takomillashtirishga doir muammolarga yechimlar va takliflar

Tadqiqot natijasida to'plangan va o'rganilgan ma'lumotlar shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va ularni qayta ishlash imkoniyatlaridan samarali foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar berish imkonini beradi. Shuningdek, ushbu sohasidagi ilmiy va nazariy bilimlarni boyitishga xizmat qiladi.

USULLAR

Ushbu tadqiqot raqamli muhitda shaxsiy ma'lumotlarning qayta ishlanishining foydalarini kompleks o'rganish maqsadida miqdoriy va sifatiy usullarini qo'llagan holda olib boriladi. Quyidagi tadqiqot usullaridan foydalaniladi:

Adabiyotlar tahlili: shaxsiy ma'lumotlar sohasidagi ilmiy maqolalar, kitoblar mutaxasislarning ilmiy ishlari va boshqa manbalarga asoslangan holda mavzuga oid nazariy asoslar o'rganiladi. Google Scholar, lex.uz, csec.uz kabi ma'lumotlar bazalaridan foydalaniladi. Tahlil jarayonida "personal data protection", "personal privacy in cyberlife", "cybercrime statistics" kabi kalit so'zlar orqali qidiruv amalga oshirildi va so'nggi 5 yil ichida chop etilgan manbalar ustuvorlik bilan tanlab olindi.

So'rovnoma: Raqamli muhitda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish vositalarini qo'llash va uni takomillashtirishga doir onlayn so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnomada tur xil xalqaro davlatlarning oliy o'quv yurtida tahsil olayotgan talabalar ishtirok etishganligi o'rganildi va so'rovnomaning natijasi ushbu maqolada tahlil qilingan.

Chuqurlashtirilgan intervyu: Shaxsiy ma'lumotlarning qayta ishlanishi sohasidagi o'qituvchi mutaxasislar tomonidan yozilgan ilmiy tadqiqot ishlari o'rganildi. Shuningdek, mazkur sohada yetuk mutaxasislardan va huquqshunos olimlardan yarim strukturalashtirilgan intervyular olindi va ularning javoblari

mazkur maqolada tahlil qiindi. Ushbu sohaning qayta ishlanishini takomillashtirishga doir fikr, takliflar o‘rganildi.

Hodisani o‘rganish (case study): raqamli muhitda shaxsiy ma’lumotlarning himoyasi kafolati belgilangan va shaxsiy ma’lumotlarning qayta ishlanishiga doir 5 ta xorijiy davlatlarning metodlari va tajribasi o‘rganildi. Ushbu davlatlarning veb-saytlari, yillik hisobotlari va ochiq manbalardan olingan ma’lumotlar tahlil qilindi.

Kontent tahlil: Ijtimoiy tarmoq sahifalarida shaxsiy ma’lumotlarning qayta ishlanishiga doir ma’lumotlar bo‘yicha mavjudligi nuqtai nazaridan tahlil qilindi va ushbu o‘rganishlarni real hayotga tadbiq qilishga oid onlayn kontentlar o‘rganildi.

Qiyosiy tahlil: Jamiyat hayotida o‘rnatilayotgan va qo‘llanilayotgan milliy qonunchiligi va xalqaro qonunchiliklar o‘rtasidagi farqlar va o‘xshashliklar kolliziyalar o‘rganildi va tahlil qilindi va ularni boyitishga oid takliflar va tadqiqotlar o‘rganildi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijasida raqamli muhitda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va ularni qayta ishlashni takomillashtirish bo‘yicha quyidagi asosiy ma’lumotlar tahlil qilindi:

Shaxsiy ma’lumotlar tushunchasi va uning huquqiy kafolati

Avvalombor shaxsiy ma’lumotlar tushunchasiga ta’rif berishda qator normativ huquqiy hujjatlardan va huquqshunos olimlarning fikridan foylanamiz. O‘zbekiston Respublikasining 02.07.2019 yildagi O‘RQ-547-son “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida” gi qonunining 4-moddasiga ko‘ra shaxsga doir ma’lumotlar — muayyan jismoniy shaxsga taalluqli bo‘lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog‘ozda va (yoki) boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborot, deya ta’rif beriladi. Ya’ni bunda belgilanadiki, shaxsga doir ma’lumotlar ya’ni shaxning shaxsiy ma’lumotlari

milliy qonunchilikda belgilangan va ushbu normada belgilangan tartibda himoya qiladi. Fikrimizcha, ushbu normadan shuni bilish mumkinki, shaxsiy ma'lumotlar muayyan jismoniy shaxslarga ya'ni, fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va chet el fuqarolari uchun ularga boshqacha tarzda identifikatsiya qilinishi imkonini beradigan har qanday axborot. Shaxsiy ma'lumotlar inson tug'ilgan boshlab to uning vafot etguniga qadar boyitilib boradigan ma'lumotlari, axborotlari. Bularga misol qilib, tug'ulgan bilan qo'lga kiritadigan tug'ilgan to'g'risidagi guvohnomasi va keyinchalik ega bo'lishi mumkin bo'lgan nomida bo'gan ko'chmas yoki ko'char mulk borligi to'g'risidagi ma'lumotnoma va boshqa inson butun hayoti davomida ega bo'lishi mumkin bo'lgan va faqat individual unga tegishli bo'lgan xabrotlarni kiritishimiz mumkin.

Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash asoslari

Kundalik hayotimizda biz ko'pincha shaxsiy ma'lumotlarimizni onlayn platformalarda, ijtimoiy tarmoqlarda va boshqa veb-saytlarda bo'lishamiz. Bu ma'lumotlar orasida bizning ism-sharifimiz, tug'ilgan sanmiz, manzilimiz, telefon raqamimiz, elektron pochta manzilimiz va hatto kredit karta ma'lumotlarimiz ham bo'lishi mumkin. Agar bu ma'lumotlar noto'g'ri qo'llarga tushsa, ular firibgarlik, o'g'irlik yoki shaxsiy hayotimizga tajovuz qilish uchun ishlatilishi mumkin. Mazkur jinoyatlarning oldini olish uchun shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga ehtiyoj tug'iladi. Buning asoslari milliy qonunchiligimizda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Yuqorida belgilangan qonunda ham belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Quyidagi asoslarda shaxsiy ma'lumotlarga qayta ishlov berilishi mumkin:

Shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish, tizimlashtirish va saqlash

Shaxsga doir ma'lumotlarni o'zgartirish va to'ldirish

Shaxsga doir ma'lumotlardan foydalanish

Shaxsga doir ma'lumotlarni berish

Shaxsga doir ma'lumotlarni tarqatish

Shaxsga doir ma'lumotlarni transchegaraviy uzatish

Shaxsga doir ma'lumotlarni egasizlantirish

Shaxsga doir ma'lumotlarni yo'q qilish

Ushbu ishlov berish asoslari orqali barcha jismoniy shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashni takomillashtirishga yo'l ochadi.

Yuqoridagilarga misol qilib tur xil kompaniya va zavodlar hatto do'konlarda ham shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash siyosati mavjudligini keltirishimiz mumkin, jumladan, barchaga tanish bo'lgan savdo markazi <https://rabota.korzinka.uz/> ning ham shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga doir alohida hujjati mavjud. Ushbuda foydalanuvchining quyidagi shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashi mumkinligi aytilgan:

- 3.1. FISH;
- 3.2. Tug'ilgan kuni;
- 3.3. Faoliyat turi;
- 3.4. Oilaviy ahvoli;
- 3.5. Oila a'zolarining soni;
- 3.6. Elektron manzil;
- 3.7. Telefon raqamlari;
- 3.8. Shuningdek, saytda internet-statistika xizmatlaridan (Yandex Metric va

Google Analytics va boshqalar) foydalangan holda tashrif buyuruvchilar to'g'risidagi egasizlashtirilgan ma'lumotlar (shu jumladan "cookie" fayllar) to'planadi va qayta ishlanadi.

Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashni takomillashtirish uchun bir qator asosiy strategiyalarni ko'rib chiqish mumkin:

Ma'lumotlarni shifrlash: Har qanday shaxsiy ma'lumotlar, ularni saqlash va uzatish jarayonida shifrlanishi lozim. Bu, ma'lumotlar xatolari va o'g'irlanishidan himoya qilishda samarali vosita hisoblanadi.

Anonimlashtirish va pseudonimlashtirish: Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashda anonimlashtirish yoki pseudonimlashtirish usullarini qo'llash, shaxslarni aniqlash imkonini kamaytiradi.

Foydalanuvchilarning roziligi: Foydalanuvchilardan ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilik olish jarayonini takomillashtirish, ularga o'z ma'lumotlariga nisbatan ko'proq nazorat berish.

Tizimlarni yangilash: Kiber xavfsizlikni kuchaytirish uchun texnologik infrastruktura va dasturiy ta'minotlarni doimiy ravishda yangilab turish.

Xavfsizlik protokollari: Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlovchi barcha tizimlar uchun xavfsizlik protokollarini ishlab chiqish va joriy etish.

Tahlil va nazorat: Ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonlarini muntazam ravishda tahlil qilish va nazorat qilish, muammolarni erta aniqlash imkonini beradi.

Xodimlarni o'qitish: Xodimlarni kiber xavfsizlik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha muntazam ravishda o'qitish, xatolardan qochish va hujumlarni oldini olishda yordam beradi.

Ochiq va shaffoflik: Foydalanuvchilar bilan shaxsiy ma'lumotlarning qayta ishlanishi haqida ochiq va shaffof bo'lish, ishonchni oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Raqamli muhitda shaxsiy ma'lumotlarga tajovuz va ularning himoyasiga doir o'rganishlar

Raqamli muhitda shaxsiy ma'lumotlarga tajovuz va ularning himoyasi dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Biz onlayn xaridlarni amalga oshirganimizda, internet-banking xizmatlaridan foydalanganimizda yoki soliq deklaratsiyalarini to'ldirganimizda ham shaxsiy va moliyaviy ma'lumotlarimizni himoya qilishimiz

kerak. Bu ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash uchun biz ishonchli veb-saytlardan foydalanishimiz, kuchli parollarni tanlashimiz va ularni muntazam ravishda yangilashimiz, hamda shubhali havolalarga kirishdan saqlanishimiz lozim.

Bugungi kunda milliy qonunchilikda ham xalqaro tajribada ham shaxsiy ma'lumotlar himoyasiga doir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Turli xil normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinyapti, xorijiy tajribalardan andoza olib ichki tizimizga moslashtirilmoqda va bundan tashqari xalqaro hujjatlarning implementatsiya qilinishi shaxsiy ma'lumotlarning himoyasini yanada ta'minlamoqda.

Bunga yaqqol misol qilib, Evropa Ittifoqining umumiy ma'lumotlarni himoya qilish qoidalari: shaxsiy ma'lumotlarni yig'uvchi kompaniyalar uchun o'zgarishlar va oqibatlari haqidagi ScienceDirect jurnalida chop etilgan maqolaga ko'ra, 1960-yillarda elektron ma'lumotlarni qayta ishlashning jadal rivojlanishi boshlanganidan beri ma'lumotlarning maxfiyligi to'g'risidagi qonunchilik shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash texnologiyalarining rivojlanishi bilan rivojlanmoqda. G'arb mamlakatlarida shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi to'g'risidagi qonunchilik o'sha paytda Evropada ham, AQShda ham (AQSh) o'rnatilgan. Shuningdek, mazkur maqolada GDPR shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bilan bog'liq mavjud muammolarni hal qilish, onlayn maxfiylik huquqlarini mustahkamlash va Evropaning raqamli iqtisodiyotini rivojlantirishga qaratilgan. U, xususan, shaxslarga shaxsiy ma'lumotlarini boshqarish va boshqarish uchun yaxshiroq imkoniyatlarni taqdim etishga qaratilgan (Mantelero, 2013), shu sababli ma'lumotlar sub'ektlarining shaxsiy ma'lumotlarni yig'uvchi kompaniyalarga ishonchini mustahkamlashga intiladi. Ma'lumotlarni himoya qilishning yangi doirasida, agar bu yaxshilangan va moslashtirilgan xizmatlar bilan biznesni rivojlantirishga olib keladigan bo'lsa, shaxsiy xizmat foydalanuvchilari ham

ma'lumotlarning erkin harakatlanishidan foydalanishlari mumkinligini haqida soʻz boradi.

Shaxsiy maʼlumotlarni qayta ishlashni takomillashtirishga doir milliy qonunchiliklarning jamiyatga taʼsirini baholash

O'zbekiston Respublikasida raqamli muhitda shaxsiy ma'lumotlarga tajovuz va ularning himoyasiga doir so'nggi yillarda bir qator qonuniy, texnik va ijtimoiy chora-tadbirlar ko'rilmogda. Buning natijasida davlat, xususiy sektor va fuqaro jamiyati tomonidan ma'lumotlarni himoya qilishga qaratilgan bir nechta ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Bugungi kunda milliy qonunchiligimizdan misol qilib O'zbekiston Respublikasining 02.07.2019 yildagi O'RQ-547-son "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida" gi qonunida shaxsning o'ziga tegishli bo'lgan barcha ma'lumotlari himoyasi uning huquqiy kafolati belgilangan. Ushbu qonunning 5-bobi shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish deb nomalanadi va ushbu bobda himoya qilish tartibi va vakolatli organlarning himoya qilish borasidagi vakolatlari belgilab qo'yilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat personallashtirish markazi shaxsga doir ma'lumotlar sohasidagi vakolatli davlat organidir va bu organning vazifalari ichiga mulkdorning va (yoki) operatorning shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berilishini hamda ularning himoya qilinishini ta'minlovchi tuzilmaviy bo'linmasi yoki vakolatli shaxsi faoliyatini tashkil etishning namunaviy tartibini tasdiqlash kabilar kiradi. Ya'ni, bundan ko'rinib turibdiki shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashning himoyasi tartibini belgilaydi.

O'zbekistonda davlat va xususiy sektor tashkilotlari o'rtasida kiberxavfsizlikni kuchaytirish bo'yicha bir qancha dasturlar amalga oshirilgan. Kiberhujumlar va ma'lumotlarning o'g'irlanishi holatlariga qarshi kurashish uchun yangi texnologiyalar joriy qilinmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasining 15.04.2022 yildagi O'RQ-764-son "Kiberxavfsizlik to'g'risida" gi qonunida

kiberhimoya — kiberxavfsizlik hodisalarining oldini olishga, kiberhujumlarni aniqlashga va ulardan himoya qilishga, kiberhujumlarning oqibatlarini bartaraf etishga, telekommunikatsiya tarmoqlari, axborot tizimlari hamda resurslari faoliyatining barqarorligini va ishonchliligini tiklashga qaratilgan huquqiy, tashkiliy, moliyaviy-iqtisodiy, muhandislik-texnik chora-tadbirlar, shuningdek ma'lumotlarni kriptografik va texnik jihatdan himoya qilish chora-tadbirlari majmui deya ta'kidlanadi. Ya'ni bundan anglashiladiki, shaxsiy ma'lumotlar kibermakonda kiberhimoya tartibida himoya qilinishing huquqiy kafolatini belgilaydi. Bu norma orali jamiyatda ularning kiberjinoyatchilik bilan bog'liq huquqlari kafolatlanadi va ularda shaxsiy ma'lumotlarning himoyasiga nisbatan ishonch yuzaga keladi.

Xalqaro qonunchilikda shaxsiy ma'lumotlar himoyasi va ularni joriy etish

Xalqaro qonunchilikda shaxsiy ma'lumotlar himoyasi va ularni joriy etish, ayniqsa raqamli dunyoda muhim va murakkab masala bo'lib, ko'plab mamlakatlarda tegishli qonunlar va me'yoriy hujjatlar orqali tartibga solinadi. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, shaxsiy erkinliklar va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida butun dunyo bo'ylab bir nechta asosiy yondashuvlar mavjud. Masalan bunga misol qilib Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi nizom GDPRni olishimiz mumkin. Ushbu nizomning 5- moddasiga ko'ra Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash tamoyillari

ma'lumotlar subyektiga nisbatan qonuniy, adolatli va shaffof tarzda qayta ishlanadi (“qonuniylik, adolatlilik va shaffoflik”);

aniq, aniq va qonuniy maqsadlar uchun yig'ilgan va keyinchalik ushbu maqsadlarga mos kelmaydigan tarzda qayta ishlanmagan; 89-moddaning 1-bandiga muvofiq, jamoat manfaatlarini, ilmiy yoki tarixiy tadqiqot maqsadlarida yoki

statistik maqsadlarda arxivlash maqsadlarida keyingi qayta ishlash dastlabki maqsadlarga mos kelmaydigan deb hisoblanmaydi (“maqsadni cheklash”);

adekvat, tegishli va ularni qayta ishlash maqsadlariga nisbatan zarur bo'lgan narsalar bilan cheklangan ("ma'lumotlarni minimallashtirish");

to'g'ri va kerak bo'lganda yangilangan; Noto'g'ri bo'lgan shaxsiy ma'lumotlar, ularni qayta ishlash maqsadlarini hisobga olgan holda, kechiktirmasdan o'chirilishi yoki tuzatilishini ta'minlash uchun barcha oqilona choralar ko'rilishi kerak ("aniqlik");

shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish maqsadlari uchun zarur bo'lgan vaqtdan ko'proq vaqt davomida ma'lumotlar sub'ektlarini identifikatsiyalashga imkon beradigan shaklda saqlanadi; shaxsiy ma'lumotlar uzoqroq muddatlarda saqlanishi mumkin, chunki shaxsiy ma'lumotlar faqat arxivlash maqsadlarida jamoat manfaatlari, ilmiy yoki tarixiy tadqiqot maqsadlari yoki 89-moddaning 1-bandiga muvofiq statistik maqsadlar uchun tegishli texnik va tashkiliy choralarni amalga oshirish sharti bilan qayta ishlanadi. ma'lumotlar sub'ektining huquq va erkinliklarini ta'minlash uchun ushbu Nizom talab qiladigan choralar ("saqlashni cheklash");

shaxsiy ma'lumotlarning tegishli xavfsizligini ta'minlaydigan tarzda qayta ishlanadi, shu jumladan ruxsatsiz yoki noqonuniy ishlov berishdan va tasodifiy yo'qotish, yo'q qilish yoki shikastlanishdan himoya qilish, tegishli texnik yoki tashkiliy choralar ("yaxlitlik va maxfiylik").

Bundan tashqari xalqaro doirada ya'ni xalqaro tashkilotlarning turli xil rezolyutsiyalarida ham shaxsiy ma'lumotlar himoyasi o'z aksini topgan. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti raqamli asrda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va shaxsiy daxlsizlik huquqi bo'yicha bir nechta rezolyutsiyalarni qabul qildi, jumladan:

Qaror 68/167 Ushbu rezolyutsiya Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan va odamlar oflayn rejimda bo'lgan bir xil huquqlar onlayn tarzda ham himoya qilinishi kerak degan g'oyani qo'llab-quvvatlaydi.

Qaror 71/199 Ushbu rezolyutsiya Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 2017 yilda qabul qilingan va raqamli asrda shaxsiy daxlsizlik huquqiga qaratilgan.

A/HRC/RES/42/15 Ushbu rezolyutsiya Inson huquqlari bo'yicha kengash tomonidan 2019 yilda qabul qilingan bo'lib, raqamli asrda shaxsiy daxlsizlik huquqini himoya qilish bo'yicha a'zo davlatlar va korxonalariga tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kompyuterlashtirilgan shaxsiy ma'lumotlar fayllarini tartibga solish bo'yicha BMT ko'rsatmalari--ushbu rezolyutsiya BMT Bosh Assambleyasining 45/95 rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan. Birlashgan Millatlar Tashkilotida, shuningdek, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha xalqaro standartlarni ishlab chiqishga yordam beruvchi Ma'lumotlarni himoya qilish va Maxfiylik bo'yicha komissarlar bo'yicha xalqaro konferensiya mavjud.

Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashni takomillashtirishga doir muammolarga yechimlar va takliflar

Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashning samarali va xavfsiz bo'lishi uchun bir nechta asosiy muammolarni aniqlash va ularga yechimlar taklif qilish zarur. Avvalo bir qator muammolarni sanab o'tsak:

Shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish va ishlatish jarayonida foydalanuvchilarning ruxsatisiz yoki ularning roziligisiz ma'lumotlar boshqa maqsadlarda ishlatilishi mumkin. Bu, ayniqsa, marketing va reklama maqsadlari uchun ma'lumotlarni notog'ri ishlatishda ko'zga tashlanadi.

Raqamli platformalarda shaxsiy ma'lumotlarni saqlashda xavfsizlik choralarining yetarli bo'lmisligi. Kiberhujumlar, ma'lumotlarni o'g'irlash va ruxsatsiz kirishlar xavfi mavjud.

Shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish yoki qayta ishlashda texnik yoki insoniy xatoliklar yuzaga kelishi mumkin. Bu xatoliklar, ayniqsa, ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash tizimlarida ko'p uchraydi.

Shaxsiy ma'lumotlar, masalan, kredit tarixi yoki ijtimoiy tarmoqdagi faoliyatlar, boshqa muhokama qilinmagan maqsadlarda ishlatilishi mumkin. Bu o'z navbatida diskriminatsiyaga olib kelishi, odamlarning imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

Shuningdek ushbu muammolarga mos ravishda yechimlar va takliflar turli xil olimlar tomonidan ularning tadqiqotlarida va darsliklarida joriy qilinmoqda. O'ylaymizki, shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashda ushbu muammolarni bartaraf etish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, ushbu texnologiyalarni chet davlatlardan olib kelinishiga ruxsat berish va ularning ishlash mexanizmini aholiga tushuntirish, xalqaro standartlarga muvofiq qonunlarni qabul qilish hamda jahon tajribasidan foydalanilgan holda ularni ichki tizimga joriy qilish va foydalanuvchilarning huquqlarini amaliy samarali himoya qilinishi uchun mutaxasislarni tayyorlash zarur.

XULOSA

Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashni takomillashtirish huquqiy jihatdan aniq va qat'iy qonuniy asoslarga asoslanishi zarur. Bunga rozilikni olish, maqsadga mos ishlatish, ma'lumotlarni xavfsiz saqlash, va shaxslarning huquqlarini hurmat qilish kiradi. Shu bilan birga, xalqaro va milliy qonunlar va me'yorlarga amal qilish muhimdir. Har bir tashkilot va shaxs shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashda yuqoridagi tamoyillarni hisobga olgan holda harakat qilishlari kerak.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining 02.07.2019 yildagi O‘RQ-547-son “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida” gi qonuni
2. Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi nizom GDPR
3. O‘zbekiston Respublikasining 15.04.2022 yildagi O‘RQ-764-son “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida” gi qonuni
4. BMT Bosh Assambleyasining 45/95 rezolyutsiyasi
5. Evropa Ittifoqining umumiy ma'lumotlarni himoya qilish qoidalari: shaxsiy ma'lumotlarni yig'uvchi kompaniyalar uchun o'zgarishlar va oqibatlari haqidagi ScienceDirect jurnali
6. Inoyatov, N. (2025) Legal personhood for AI and Robots. Tsul legal report, 6(2), 25-32. [10.51788/tsul.lr.6.2./TBIX7671](https://doi.org/10.51788/tsul.lr.6.2./TBIX7671)
7. Inoyatov, N. (2025). ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND AUTONOMOUS VEHICLES: ISSUES OF LEGAL SUBJECTIVITY IN THE DIGITAL ERA. *Jurisprudence*, 5(2), 38–46. <https://doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.5.2./ecz6798>
8. Inoyatov, N. (2025c). VITAL AND SOPHIA ROBOTS AS NEW LEGAL SUBJECTS IN THE DIGITAL AGE. *Review of Law Sciences*, 9(2), 109–116. <https://doi.org/10.51788/tsul.rols.2025.9.2./ugio1061>
9. Inoyatov, N. (2025). Legal Personhood of Autonomous Systems: A Jurisprudential analysis. *Uzbek Journal of Law and Digital Policy.*, 3(1), 112–130. <https://doi.org/10.59022/ujldp.293>
10. SUN'IIY INTELLEKTNING HUQUQIY MAQOMI MASALASIGA QIYOSIY YONDASHUV: YEVIROPA ITTIFOQI VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI. (2026). *YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI*, 9(4), 119-129. <https://review.tsul.uz/index.php/yfa/article/view/312>

11. **INSON VA FUQARO SHAXSIY HUQUQ HAMDA ERKINLIKLARINING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI.** (2026). *Journal of Universal Science Research*, 4(2), 199-203. <https://doi.org/10.66301/jusr.v4i2.16983>
12. **SURXONDARYO VILOYATI ADLIYA BOSHQARMASINING TASHKILIIY-HUQUQIY SHAKLLANISHI VA KADRLAR SIYOSATI: TARIXIY-HUQUQIY TAHLILI.** (2026). *Journal of Universal Science Research*, 4(5), 20-27. <https://doi.org/10.66301/jusr.v4i5.18400>
13. **SOVET ADLIYA TIZIMIDAN MILLIY HUQUQIY INSTITUTLARGA O'TISHNING IJTIMOIIY-SIYOSIY VA HUQUQIY SHART-SHAROITLARI.** (2026). *Journal of Universal Science Research*, 4(5), 11-19. <https://doi.org/10.66301/jusr.v4i5.18399>
14. **GLOBAL TAHDID SIFATIDA ODAM SAVDOSI MASALALARINING KOMPLEKS TAHLILI VA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MASALALARI.** (2026). *Journal of Universal Science Research*, 4(2), 237-248. <https://doi.org/10.66301/jusr.v4i2.17037>
15. **MURUVVAT UYIDA BIR KUN: KO'Z BILAN KO'RILGAN HAYOT, HUQUQIY HIMOYA ORQALI DAVOM ETTIRILADIGAN KELAJAK.** (2026). *Journal of Universal Science Research*, 4(2), 192-198. <https://doi.org/10.66301/jusr.v4i2.16982>
16. **ADABIY TARJIMA VA UNING AHAMIYATI.** (2026). *ACUMEN: INTERNATIONAL JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY RESEARCH*, 3(5), 913-916. <https://doi.org/10.66301/5ccb8823>
17. **GESTATSION VA SURUNKALI ARTERIAL GIPERTENZIYADA HOMILADORLIK KECHISHINING KLINIK-LABORATOR VA DOPPLEROMETRIYA KO'RSATKICHLARI QIYOSIY TAHLILI.** (2026). *"Conference on Universal Science Research 2023"*, 4(5), 32-34. <https://universalpublishings.com/index.php/cusr/article/view/18709>
18. **QUMQO'RG'ON TUMANINING IQTISODIY-GEOGRAFIK TAVSIFI: HUDUDIY JOYLASHUV, DEMOGRAFIK DINAMIKA VA XO'JALIK IXTISOSLASHUVI.** (2026). *SYNAPSES: INSIGHTS ACROSS THE DISCIPLINES*, 3(5), 696-703. <https://universalpublishings.com/index.php/siad/article/view/18814>
19. **TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHGA OID KLASSIK VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.** (2026). *"Conference on*

Universal Science Research 2023, 4(5), 5-10.
<https://universalpublishings.com/index.php/cusr/article/view/18433>

20. **YURIDIK FAOLIYATDA MANTA RAY FORAGING OPTIMIZATION USULLARINI QO'LLANILISHI.** (2025). *"XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR"* *Nomli Respublika Ilmiy-Amaliy Konferensiyasi*, 3(4), 89-95. <https://universalpublishings.com/index.php/itftdm/article/view/10940>

21. **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYAVIY RIVOJLANISHI.** (2026). *FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI*, 3(5), 37-40. <https://universalpublishings.com/index.php/fan/article/view/18722>

22. **INGLIZ HUQUQI VA O'ZBEKISTON QONUNCHILIGIDA SHARTNOMA TUZISH ASOSLARINING QIYOSIY HUQUQIY TAHLILI.** (2024). *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 2(11), 48-52. <https://universalpublishings.com/index.php/jsiru/article/view/7889>

23. **YOQUB ABU YUSUFNING IJTIMOY-FALSAFIY QARASHLARI.** (2024). *UNIVERSAL BOOKS AND MONOGRAPHS*, 1(1). <https://universalpublishings.com/index.php/ubm/article/view/5084>

24. **O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI BOSHLANG'ICH TASHKILOTINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.** (2024). *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 2(5), 180-184. <https://universalpublishings.com/index.php/tsru/article/view/5969>

25. **INSON VA FUQAROLARNING HUQUQ VA ERKINLIKLARINI HIMOYA QILISHNING YURIDIK MEXANIZMLARI.** (2024). *CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH*, 1(9), 94-96. <https://universalpublishings.com/index.php/cnassir/article/view/7157>

26. **ODIL SUDLOVNING ASOSI — BU MALAKALI, MUSTAQIL VA VIJDONLI SUDYALARDIR.** (2025). *Yangi O'zbekistonda Tabiiy Va Ijtimoiy-Gumanitar Fanlar Respublika Ilmiy Amaliy Konferensiyasi*, 3(8), 99-100. <https://universalpublishings.com/index.php/gumanitar/article/view/13504>

27. **SUD-EKSPERTIZA FAOLIYATIGA YANGI INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETILISHI.** (2024). *MEDICINE, PEDAGOGY AND TECHNOLOGY: THEORY AND PRACTICE*, 2(5), 634-639. <https://universalpublishings.com/index.php/mpttp/article/view/5992>

28. **XALQARO HUQUQ VA G‘AZO FOJIASI: YOSHLARNING FUQAROLIK POZITSIYASI VA ADOLAT IZTIROBI.** (2025). *JOURNAL OF ANALYTICAL SYNERGY AND SCIENTIFIC HORIZON*, 1(1), 47-57.

29. **ZAMONAVIY JARROHLIKDA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA TEX NOLOGIYALAR.** (2025). *"SUD TIBBIYOTIDA YANGI KUN" ILMIY-REFERATIV JURNAL*, 1(3), 5-9.
<https://universalpublishings.com/index.php/styk/article/view/14599>

30. **POSSIBILITIES FOR DIAGNOSIS AND TREATMENT OF CERVICAL DISEASES.** (2026). *INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE*, 3(5), 3-7.
<https://universalconference.us/universalconference/index.php/icms/article/view/7069>

31. **A Philosophical Analysis of Sufi Views in Yunus Emre’s Worldview.** (2026). *PROBLEMS AND SOLUTIONS OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH*, 3(5), 3-5.
<https://universalconference.us/universalconference/index.php/pssir/article/view/7134>

32. **USING ECONOMIC MECHANISMS TO INCREASE THE COMPETITIVENESS OF TEXTILE INDUSTRY ENTERPRISES.** (2026). *INTERNATIONAL CONFERENCE ON ADVANCE SCIENCE AND TECHNOLOGY*, 3(4), 11-14.
<https://universalconference.us/universalconference/index.php/icast/article/view/7132>

33. **YOSH OILALARDA OILAVIY NIZOLARNING PSIXOLOGIK TA’SIRI.** (2026). *CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD*, 3(5), 6-8.
<https://universalconference.us/universalconference/index.php/crismw/article/view/7139>

34. **AI-BASED AUDIT SYSTEMS: PROSPECTS FOR DETECTING FINANCIAL FRAUD AND REDUCING THE SHADOW ECONOMY.** (2026). *INTERNATIONAL CONFERENCE ON MEDICINE, SCIENCE, AND EDUCATION*, 3(4), 3-20.
<https://universalconference.us/universalconference/index.php/icmse/article/view/7042>

35. **IMPROVING A WARNING-BASED REGIONAL TAX CONTROL MECHANISM FOR RAISING LOCAL BUDGET REVENUES.** (2026). *INTERNATIONAL SCIENTIFIC INNOVATION RESEARCH CONFERENCE*, 3(3), 3-15.
<https://universalconference.us/universalconference/index.php/isirc/article/view/704>

1

36. **РОЛЬ ТРАДИЦИЙ ФРАНЦА КАФКИ И ПРОБЛЕМЫ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ИНТЕРПРЕТАЦИИ В ТВОРЧЕСТВЕ НАЗАРА ЭШОНКУЛА.** (2026). *INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS*, 3(5), 3-7.
<https://universalconference.us/universalconference/index.php/icmdpl/article/view/7124>

37. **“Fe (II) , Ni (II) IONLARINING TARKIBIDA AZOT , KISLOROD TUTGAN IMMOBILLANGAN LIGANDLARDA SORBSIYASI VA METALLOKOMPLEKSLARI TADQIQOTI.** (2026). *INTERNATIONAL CONFERENCE ON ANALYSIS OF MATHEMATICS AND EXACT SCIENCES*, 3(2), 3-6.
<https://universalconference.us/universalconference/index.php/icames/article/view/6905>

38. **INTERNATIONAL CONFERENCE OF NATURAL AND SOCIAL-HUMANITARIAN SCIENCES.** (2026). *INTERNATIONAL CONFERENCE OF NATURAL AND SOCIAL-HUMANITARIAN SCIENCES*, 3(3), 6-9.
<https://universalconference.us/universalconference/index.php/ICNSHS/article/view/6992>

39. **IN VITRO USULIDA O’SIMLIK YETISHTIRISH VA UNING AFZALIKLARI”.** (2026). *AGROINNOVATSIYA*, 4(2), 6-11.
<https://agroinnovatsiya.uz/index.php/ag/article/view/248>

40. **TOSHKENT SHAHRINING UCHTEPA TUMANIDA AHOLI HARAKATCHANLIGINING TRANSPORT-GEOGRAFIK NUQTAI NAZARDAN TAHLIL QILISH.** (2026). *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 6(5), 13-16.
<https://mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/7327>

41. **IMPROVING ENERGY EFFICIENCY IN INDUSTRIAL PROCESSES BASED ON CFD SIMULATIONS AND ASSESSMENT OF**

- ECONOMIC EFFICIENCY.** (2026). *International Conference on Multidisciplinary Science*, 4(5), 18-20. <https://mijstjournal.com/index.php/icms/article/view/7413>
42. **THE ROLE OF GENDER IN SHAPING COMMUNICATION STYLES : (ENGLISH VS. KARAKALPAK).** (2026). *SCIENCE TIME JOURNAL*, 4(5/2), 6-11. <https://doi.org/10.66345/stj.v4i5/2.5864>
43. **HUQUQ NORMALARI VA TUSHUNCHALARI.** (2023). *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 1(8), 100-102. <https://uzresearchers.com/index.php/ijrs/article/view/1081>
44. **BOLA HUQUQLARI.** (2024). *Analysis of International Sciences*, 2(5), 81-86. <https://uzresearchers.com/index.php/XAFT/article/view/3346>
45. **INTERNET JURNALISTIKADA FORMAT VA JANR MASALASI.** (2024). *Konferensiyalar | Conferences*, 1(18), 9-12. <https://uzresearchers.com/index.php/Conferences/article/view/3765>
46. **GULXANIYNING “ZARBULMASAL” ASARI ONOMASTIK TIZIMI.** (2026). *The Role of Exact Sciences in the Era of Modern Development*, 4(1), 4-6. <https://uzresearchers.com/index.php/RESMD/article/view/2763>
47. **RAQAMLI PLATFORMALAR ASOSIDA UNIVERSITET VA BIZNES HAMKORLIGI.** (2026). *Barqaror Taraqqiyot Va Rivojlanish Tamoyillari*, 4(3), 4-6. <https://uzresearchers.com/index.php/BTRT/article/view/343>
48. **СРАВНЕНИЕ ЦЕЛОСТНОГО И ПОЭТАПНОГО МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ СЛОЖНЫМ ПРИМАМ В СПОРТИВНОЙ БОРЬБЕ.** (2026). *Нововведения Современного Научного Развития в Эпоху Глобализации: Проблемы и Решения*, 4(1), 4-6. <https://uzresearchers.com/index.php/NSNR/article/view/3290>
49. **MODERN PARADIGMS OF TEACHING PHYSICS IN TECHNICAL HIGHER EDUCATION AT THE STAGE OF DIGITAL DEVELOPMENT.** (2026). *International Innovation Research*, 2(2), 4-13. <https://doi.org/10.66343/03a08d68>
50. **TINISH BELGILARINING MA'NO FARQLASHDAGI O'RNI.** (2026). *NEW UZBEKISTAN: A FIELD OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH*, 1(3), 4-6. <https://xiuresearch.com/index.php/NU/article/view/978>
51. **EMPLOYEES WORKING IN THE COMMUNICATION SYSTEM OF KHOREZM DURING THE SECOND WORLD WAR.** (2026).

International Conference of Integrated Science, 1(3), 4-8.
<https://xiuresearch.com/index.php/icis/article/view/1814>

52. **СОЦИАЛЬНОЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СЧАСТЬЕ.** (2026). *Indexing*, 2(1), 1-5.
<https://xiuresearch.com/index.php/Indexing/article/view/1073>

53. **IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA XORAZMDA IRAKCHILIK SOHASI FAOLIYATI.** (2026). *Innovation and Development*, 4(5), 5-8. <https://adabiyotxazinasi.com/index.php/inno/article/view/1253>

54. **O‘ZBEK XALQ SHEVALARIDA O‘YIN NOMLARINING KELITIRILISHI.** (2026). *“BILGA” ILMIY-NAZARIY, METODIK ELEKTRON JURNAL*, 1(1), 6-9. <https://adabiyotxazinasi.com/index.php/bilga/article/view/1287>

55. **Samandarova Nodira Toir kizi.** (2026). MULTIDIMENSIONAL POVERTY AND CHILD HEALTH IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM MICS 2021–2022. *Fan Va Tadqiqot Samaralari*, 3(1), 4–6.
<https://academicsbook.com/index.php/fts/article/view/5484>

56. **Azimov Anvarjon Azizjon o‘g‘li.** (2026). YOSH YUNON–RUM KURASHCHILARIDA KOMBINATSION HUYUMLARNI AVTOMATLASHTIRISHDA NEYROMOTOR O‘QUV DASTURLARINING SAMARADORLIGI. *International Innovation and Researches*, 3(1), 4–10.
<https://academicsbook.com/index.php/iir/article/view/3688>